



“TASDIQLAYMAN”

O‘zbekiston Respublikasi  
Davlat statistika qo‘mitasi

Raisi  B.A. Begalov

” \_\_\_\_\_ 2021- yil

## **O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat xizmati faoliyati to‘g‘risidagi NIZOM**

Ushbu nizom O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021- yil 6- iyuldagi PQ-5177-son “Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat xizmatining (bundan buyon matnda Ichki nazorat xizmati deb yuritiladi) maqsadi, vazifalari, funksiyalari, huquq va majburiyatlari hamda ularning faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

### **1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Ushbu nizomda O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi deganda – davlat boshqaruvi organi (bundan buyon matnda Qo‘mita deb yuritiladi) tushuniladi.

2. Ichki nazorat xizmati o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga, O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi raisining qarorlari, buyruqlari va farmoyishlariga, shuningdek ushbu nizomga amal qiladi.

3. Ichki nazorat xizmati O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasida korrupsiya holatlarini barvaqt aniqlash va oldini olish, ularning sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish, manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik hamda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish choralarini ko‘rishga mas’ul hisoblanadi.

### **2-bob. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat xizmatini tashkil etish**

4. Ichki nazorat xizmati o‘z faoliyatida bevosita O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi raisiga bo‘ysunadi.

5. Ichki nazorat xizmati rahbari Qo‘mita tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi (bundan buyon matnda Agentlik deb yuritiladi) bilan birgalikda o‘tkaziladigan ochiq tanlov asosida ishga qabul qilinadi.